Risklarni sifat tahlili – bu loyiha bo'yicha kutilishi mumkin bo'lgan asosiy risklarni aniqlash, loyihani amalga oshirishda uning oqibatlarini o'rganish va risklarni pasaytirish yo'llarini (tadbirlarini) aniqlashdan iborat. Sifat jihatdan risklarni tahlil qilishning asosiy maqsadi risklarni sababini aniqlash, manbasini ko'rsatish va pasaytirish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat. Sifat jihatdan tahlil keyinchalik boshqa izlanishlarga asos bo'ladi. Shuning uchun biznes-reja tuzish bosqichida keng qo'llaniladi. Sifat jihatidan tahlilni natijalari: risk sababini aniqlash, uning oqibatlarini tahlil qilish, ko'rilishi mumkin bo'lgan zararni o'lchash va kamaytirish yo'llarini izlash, risk ta'siriga beriluvchi omillarni chegara ko'rsatkichlarini (minimum va maksimumni) aniqlash hisoblanadi.

Risklarning miqdoriy tahlili esa risklilik nuqtayi nazaridan loyiha bo'yicha bir qator omillarning o'zgarishi natijasida loyiha samaradorligi mezonlarining o'zgarishini o'rganishdan iboratdir. Loyihaviy risklarning miqdoriy tahlilini o'tkazish loyihaning hisob-kitoblariga asoslanadi. Miqdoriy tahlilning asosiy vazifasi loyiha samaradorligi mezonlariga asosan riskli omillarning o'zgarishi ta'sirini miqdor jihatdan o'lchashdan iborat bo'lib, miqdoriy tahlil risklarni loyiha natijalariga son o'lchovida ko'rsatib beradi. Bunday tahlil turida matematik modellar, ehtimollar nazariyasi, statistik usullar qo'llaniladi.

Risklarni tahlil qilish orqali risk oqibatida kutilishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar hajmi aniqlanadi, so'ngra, ko'rib chiqilayotgan loyihada qatnashish bo'yicha ijobiy qaror qabul qilingan hollarda riskni yo'qotish yoki pasaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Amaliyotda investitsiya risklarini baholashga katta ahamiyat beriladi, chunki risklarni tahlil qilish va baholash ba'zan juda ko'p vaqt, malaka va xarajat talab qiluvchi bosqich hisoblanadi. Lekin risklarni tahlil qilish va baholash to'g'ri va puxta amalga oshirilsa, keyinchalik investor va loyihaning boshqa qatnashchilariga kutilmagan xarajatlarning paydo bo'lishini va vaqtning behuda sarflanishini oldini oladi, paydo bo'lgan muammolarni qayta ko'rib, yechim izlashni talab etmaydi, aksincha, ko'zlangan maqsadga tez erishishga sabab bo'ladi.

Investitsiya risklarini baholashning bir qancha usullari mavjud bo'lib, ulardan asosiylarini 1-rasmda keltirib o'tamiz.



1-rasm: Investitsiya risklarini baholash usullari¹

1 Muallif tomonidan iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish asosida tuzilgan.



Zamonaviy sharoitlarda amaliyotda loyiha risklarini sifat jihatdan tahlil qilish va baholashning bir qancha usullaridan foydalanib kelinmoqda. Xususan, ekspert baholash usulining asosiy afzallik tomoni shundaki, loyiha tahlili jarayonida hamda turli sifat omillari ta'sirini hisob-kitob qilishda ekspertlar tajribasidan foydalaniladi. Loyiha risklarini ekspert baholash algoritmi (tartibi) esa quyidagilarni qamrab oladi:

- loyiha hayotiyli bosqichlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklar tarkibini ishlab chiqish;
- risklarning ehtimolligi, ushbu riskning xavflilik darajasini ekspert yo'li bilan aniqlash.

Ekspert baholash jarayoni rasman quyidagicha amalga oshiriladi: loyiha (firma) rahbarlari savol tariqasida baholash mezonlarining ro'yxatini ishlab chiqadilar. Har bir mezon uchun mos tarzda muhim bo'lgan koeffitsiyent belgilanadi, bu koeffitsiyent ekspertlarga aytilmaydi. So'ngra har bir mezon bo'yicha javoblar variantlari tuziladi, variantlardan eng muhimlari qaysiligi yana ekspertlarga bildirilmaydi. Ekspertlar baholanayotgan loyiha to'g'risida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lishlari lozim hamda loyihani ekspertiza qila turib, qo'yilgan savollarni tahlil qilishlari, shuningdek, javob variantlaridan birini tanlashlari lozim. Ekspertlar tomonidan to'ldirilgan savol varaqlari ma'lumotlarni qayta ishlash uchun tuzilgan kompyuter dasturlari orqali tekshirib chiqiladi hamda olib borilgan ekspertizaning javoblari chiqariladi. Bu usulning kamchiligi shundaki, ekspert loyihani shaxsiy tajribasidan kelib chiqib baholaydi.

Subyektiv ehtimollik usuli loyihani baholovchi ekspertning fikrlariga, shaxsiy tajribasiga asoslangan holda biror-bir natijaga oid taxminlar ishlab chiqish hisoblanadi. Bu usulni yuqorida ko'rib chiqqan ekspertlar baholash usulining bir turi deb hisoblash mumkin. Subyektiv ehtimollik usulining afzallik tomoni shundaki, qaytarilmaydigan vaziyatlarda qo'llash mumkinligi hamda kerakli miqdorda statistik ma'lumotlarning yetishmasligi sharoitida ham foydalaniladi.

Analogiya (o'xshatishlar) usulining mohiyati shundan iboratki, mumkin bo'lgan yo'qotishlarni hisob-kitob qilish maqsadida firma amalga oshirayotgan loyihaga o'xshash bo'lgan, oldin amalga oshirilgan loyihaga tegishli bo'lgan barcha ma'lumotlarni tahlil qiladi va o'xshash joylaridan foydalanadi. O'xshatishlar usulidan tez-tez qaytarib turiluvchi loyihalarni amalga oshirishda ularning risklarini baholash maqsadida foydalaniladi, ya'ni bu usul ko'proq qurilishda qo'llaniladi. Agar qurilish firmasi yakuniga yetgan loyihaga o'xshagan yana boshqa loyihani amalga oshirishni mo'ljallasa, loyihaga ta'sir etuvchi risklar darajasini mavjud statistik ma'lumotlar asosida aniqlashi mumkin. Shu maqsadda mumkin bo'lgan yo'qotishning eng yuqori va eng quyi chegarasi bilan belgilangan risk doirasini aniqlash mumkin.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida juda ko'p ko'zda tutilmagan risklarning yuzaga kelishi tabiiydir. Ammo, bu risklarni imkoni boricha oldindan aniqlab, ularni bartaraf qilish yo'llarini ishlab chiqish muhim masaladir. Risklarni sifat jihatdan baholash usullaridan foydalanib "Navoiy" erkin iqtisodiy zonasida joylashgan "Zarafshon golden group" MCHJ gazoblok va temir-beton mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha investitsiya loyihasing risklarini baholaymiz.

"Zarafshon golden group" MCHJ investitsiya loyihagini "4P" Marketing miks usuli asosida tahlilini amalga oshiramiz.

"Mahsulot" (Product) elementi "Bozorga yoki maqsadli auditoriyaga nima kerak?" degan savolga javob beradi, "Narx" (Price) elementi mahsulotni sotish qiymatini aniqlash va sotishning rentabellik darajasini baholashga yordam beradi, "Sotuv joyi" (Place) elementi to'g'ri tarqatish modelini yaratishga (yoki tovarni oxirgi iste'molchiga yetkazib berishga) yordam beradi, va "Mahsulotni ilgari surish" (Promotion) elementi "Kompaniya mahsuloti haqidagi ma'lumot bozorda qanday tarqatiladi?" degan savolga javob beradi.

Loyihani amalga oshirish orqali Navoiy shahrida joylashgan qurilish materiallari zavodi hududida gaz bloklari va temir-beton konstruksiyalarini ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda ichki bozorning ushbu turdagi materiallarga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsad qilib olingan. Gazobeton mahsulotlari yuqori texnologik va ishlab chiqarish parametrlari tufayli qurilish bozorida borgan sari katta ulushni qo'lga kirita boshladi. Gazobetonning qator ijobiy xususiyatlari aniqlangan. Avvalo, u ekologik jihatdan tabiiy materiallardan, minerallardan tayyorlanganligi sababli yong'inga chidamli. Gazobeton ideal qurilish materiali hisoblanadi, gazobeton va gazobeton bloklaridan qurilishning barcha sohalarida foydalaniladi. Uning past issiqlik o'tkazuvchanligi, nisbatan og'ir emasligi, qayta ishlash osonligi sababli tashishda, qurilishda ortiqcha chiqim talab etmaydi. Temir-beton konstruksiyalaridan ko'p qavatli jamoat binolari va inshootlarning, ishlab chiqarish va yordamchi obyektlarning poydevorlari, yerto'lalar va devorlarni qurishda keng foydalaniladi. Gazoblok va temir-beton mahsulotlariga ham mamlakatda aholi sonining o'sib borishi va qurilish sohasining rivojlanganligi sababli barcha qurilish korxonalarida talab mavjud va o'sib bormoqda.

1-jadval: “Zarafshon golden group” MCHJ investitsiya loyihasining “4P” Marketing miks usuli asosida tahlil qilish ^[8]

Product (mahsulot)	Price (narx)
Sifatli va ilg'or texnika va texnologiyalarni qo'llash asosida ishonchli, iste'molchilar va zamon talabiga mos qurilish materiallari ishlab chiqariladi. Gazobeton mahsulotlari yuqori texnologik va ishlab chiqarish parametrlari tufayli qurilish bozorida borgan sari katta ulushni qo'lga kiritib boshladi. Ekologik jihatdan tabiiy materiallardan tayyorlanishi, minerallardan tayyorlangani sababli yong'inga chidamliligi, past issiqlik o'tkazuvchanligi, qayta ishlash oson va nisbatan og'ir emasligi sababli tashishda, qurilishda ortiqcha chiqim talab etmasligi kabi ko'plab xususiyatlari gazobetonni, masalan, g'isht kabi mashhur qurilish materiallari bilan bir qatorda bo'lishga imkon beradi. Ko'p qavatli uylar, ishlab chiqarish korxonalarining bino va inshootlarini qurishda yaxlit va qulay temir-beton mahsulotlaridan foydalanish afzalligi aniqlangan.	Marketing strategiyasi mahsulot sifati, ushbu turdagi mahsulotga bo'lgan talabni doimiy o'rganish, bozor kon'yunkturasiga moslashuvchan munosabatda bo'lish, kompaniya mablag'larini eng foydali yo'nalishga qayta yo'naltirish qobiliyatiga va shu asosda yanada moslashuvchan narx taktikasiga asoslanadi. Mahsulot bahosi mahsulot xususiyatlariga, qo'shimcha xizmatlar va boshqa marketing omillariga bog'liq. Mahsulotning narxi uning sifatiga bevosita bog'liq bo'lishi kerak. Mahsulot narxi shunday belgilanishi kerakki, u korxonaning sifat darajasini va imijini to'g'ri aks ettirishi lozim. Kompaniya qat'iy belgilangan narxlardan foydalanadi va uni belgilashda quyidagilar hisobga olinadi: ishlab chiqarish xarajatlari; o'xshash mahsulot/xizmat uchun raqobatchilarning narxlari.
Place (joy)	Promotion (mahsulotni ilgari surish)
Biznes hududi – Navoiy shahrida joylashgan sobiq AJ qurilish materiallari zavodi bino va inshootlari hududida o'z faoliyatini amalga oshiradi. “Navoiy” erkin iqtisodiy zonada joylashgan zavod hududi bo'lganligi ayniqsa, biznes va ishlab chiqarish faoliyatini yuritish uchun barcha infratuzilma (suv, gaz, elektr ta'minoti, logistika va transport yo'llari hamda aloqa) mavjud. Asosan, qurilish mahsulotlarini oxirgi iste'molchisi bo'lmish qo'shni viloyatlar va qo'shni davlatlarda joylashgan qurilish kompaniyalariga transport orqali yetkazib berish uchun qulay joylashgan.	Iste'mol bozorining katta salohiyati mavjudligi hisobiga korxonaning gazobloklari va temir-beton mahsulotlari ishlab chiqarishda katta imkoniyatlarga ega bo'lishini inobatga olib, dastlabki davrda asosiy e'tibor reklama siyosati va qo'shimcha iste'molchilarni jalb qilishga qaratiladi. Reklama quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi: korxonaning imiji ustida ishlash; ushbu mahsulotga talabni yaratish, taklif etilayotgan mahsulotlarga talabning namoyon bo'lishini rag'batlantirish; iste'molchilarga mahsulot haqida kerakli ma'lumotlarni taqdim etish; savdoni ta'minlash, sotishning kerakli hajmini saqlash va uni kengaytirish; mahsulotga va uning ishlab chiqaruvchisiga nisbatan ishonchni uyg'otish; doimiy ravishda mijozning ehtiyojlarini inobatga olish; mahsulotning muayyan imijini yaratish. Reklama taklif etilayotgan mahsulot/xizmatni raqobatbardosh mahsulotdan farqlash imkoniyatini ta'minlash uchun ishlab chiqiladi. Bozorda firma quyidagi reklama turlaridan foydalanadi: radio va gazetalarda reklama e'lonlarini berish, telefon raqamlar ro'yxati (spravochnigi)da reklama, afisha va bannerlar orqali reklama.

Shu bilan birga, korxonaning raqobatchilarini tahlili ham olib borilishi kerak.

2-jadval: Gazoblok va temir-beton qurilish mahsulotlari bozorida faoliyat yurituvchi boshqa o'xshash korxonalar bilan raqobatbardoshlik tahlili ^[8]

	O'z kompaniyasi bilan taqqoslama baholash			
	Yomonroq	O'xshash	Yaxshiroq	Izoh
Mahsulot				
Mahsulot sifati			X	Yevropa standartlari texnologiyasi qo'llaniladi
Ishlab chiqarish shart-sharoitlari			X	Yangi texnika ishlatiladi
Baho				
Sotish bahosi			X	Bozor bahosi (talab va taklifdan kelib chiqib) qo'llaniladi
Chegirmalar			X	Buyurtma hajmiga ko'ra belgilanadi

Mahsulotni ilgari surish				
Reklama			X	Iste'molchilar va maxsus reklama kompaniyalari orqali
Xodimlarga ish haqi		X		Iste'molchilar orqali
Sotishni rag'batlantirish		X		Iste'molchilar orqali
Sotuv				
Sotish kanallari			X	Ulgurji va chakana sotish uchun bir yillik buyurtma
Buyurtma berish davri			X	Yil davomida

Mazkur investitsiya loyihasi raqobatchilarini tahlil qilish orqali shu narsa ma'lum bo'ldiki, bugungi kunga kelib, gazobeton ishlab chiqaruvchilari mamlakatimizda unchalik ko'p emas. Gazobetonning asosiy ishlab chiqaruvchilari "Xorijqurilish texnologiya" MCHJ va "New Design Technology" MCHJ hisoblanadi. Ana shu ikki korxonaga ham Toshkent shahrida joylashgan, Navoiy viloyatiga yaqin hududlarda gazobeton ishlab chiqaruvchilar yo'q. Shu bilan birga, respublikamizda avtoklavlangan gazobeton ishlab chiqaruvchilar yo'qligini alohida ta'kidlash lozim.

Navoiy shahrida "Zarafshon golden group" MCHJ qurilish korxonasi iste'molchilarning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tashkil etilgan. Mahsulotning asosiy iste'molchilari yaqin atrofdagi O'rta Osiyo respublikalaridagi qurilish tashkilotlari hamda Navoiy viloyati va unga yaqin Samarqand va Buxoro viloyatlari hamda respublikaning boshqa viloyatlaridagi qurilish tashkilotlari hisoblanadi.

"Zarafshon golden group" MCHJ investitsiya loyihasining gazoblok va temir-beton mahsulotlarini ichki bozorda sotish uchun o'ndan ortiq korxonalar bilan oldi-sotti shartnomalari tuzilgan. Bulardan tashqari, mazkur korxonaning o'zi Navoiy shahrida ko'p qavatli turar-joy majmualari qurilishi bilan shug'ullanadi. Yuqoridagilarni hisobga olganda investitsiya loyihasining tayyor mahsulotini sotish muammo tug'dirmaydi.

"Zarafshon golden group" MCHJ investitsiya loyihasining mahsuloti va raqobatchilari tahlili amalga oshirish orqali quyidagilar xulosa qilindi:

- mahsulot sifatli, Yevropa standartlari talabi bo'yicha ishlab chiqariladi;
- mahsulot ishlab chiqarishda mahalliy tabiiy mineral xom ashyolardan va xorijiy sifatli xom ashyo va resurslar foydalaniladi;
- mahsulotga o'xshash mahsulotlar Toshkent shahrida ishlab chiqariladi, ammo Navoiy viloyatiga yaqin hududlarda mavjud emas, shuningdek, loyiha mahsulotining ba'zi turlari O'zbekistonda mavjud emas;
- mahsulot bahosi talab va taklifdan kelib chiqib va korxonaning sifat darajasiga qo'ygan talablari va imijini hisobga olgan holda belgilanadi. Shuningdek, korxonaga mahsulotlarini iste'molchilarga tezroq tanishtirish maqsadida va qurilish mahsulotlarining narxlarini inflyatsiya sababli oshib ketayotganini hisobga olib, haridor manfaatini ko'zlab dastlabki yillarda qat'iy narxlarda sotish ko'zlangan;
- raqobatchilar mavjud, ammo ular tomonidan to'liq bozor egallanmagan, raqobatchilarga nisbatan narx, sifat, resurslar va vaqt tejamkorligi bo'yicha afzalliklarga ega.

Investitsiya loyihasining mahsulotlari va raqobatchilari tahlilidan so'ng, ushbu loyiha afzalliklari, kamchiliklari va imkoniyatlari hamda unga tahdid soluvchi omillarni yaqqol o'rganish maqsadida SWOT tahlilini amalga oshiramiz (3-jadval).

"Zarafshon golden group" MCHJ investitsiya loyihasining SWOT tahlilidan ko'rinib turibdiki, korxonaning mamlakatdagi yirik va nufuzli qurilish kompaniyalari bilan hamkorlik aloqalari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Korxonaning joylashgan joyi "Navoiy" EIZ da joylashgan zavod hududi bo'lganligi, ayniqsa, biznes va ishlab chiqarish faoliyatini yuritish uchun barcha infratuzilma mavjud hamda qurilish mahsulotlarini qo'shni viloyatlar va qo'shni davlatlarda joylashgan qurilish kompaniyalariga transport orqali yetkazib berish uchun qulay hisoblanadi. Korxonaga mahsuloti zamonaviy texnika va texnologiyalar asosida Yevropa standartlari talabi bo'yicha ishlab chiqariladi, sifati yuqori. Eng asosiysi, resurslarni va vaqtni tejash imkoniyati mavjud. Bundan tashqari, korxonaga qator imkoniyatlarga ham ega: mamlakatda qurilish sohasining rivojlanishi, turli ko'p qavatli zamonaviy binolarning qurilishiga talabning ortib borishi va qurilish mahsuloti bozorining to'yinmaganligi korxonaning o'sishi va keqayishiga imkoniyat yaratadi.

3-jadval: “ZARAFSHON GOLDEN GROUP” MCHJ investitsiya loyihasining SWOT tahlili ^[8]

	Ijroiy omillar	Salbiy omillar
	Kuchli tomonlari (ichki potensial) (S)	Zaif tomonlari (kamchiliklar) (W)
Ichki muhit	1) Korxonaning “Zarafshon Ovozi” MCHJ, “Zarafshon Grand Invest” MCHJ kabi yirik korxonalar bilan qurilish sohasida ko‘p yillik hamkorligining mavjudligi. 2) Korxonaning qulay joylashuvi. 3) Ishlab chiqarishda yangi texnika va texnologiyadan foydalanilishi. 4) Mahsulot sifatining raqobatchilarga nisbatan afzalligi. 5) Mahsulotni sotish va yetkazib berishda yuqori darajada sifatli xizmat ko‘rsatilishi. 6) Mahsulot ishlab chiqarishda resurslar va vaqtni tejalishi.	1) Ishlab chiqaruvchi va ishlab chiqarilayotgan yangi qurilish mahsulotlarining xususiyatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning shaffof emasligi. 2) Ichki moliyalashtirish manbalarining yetarli emasligi. 3) Qurilish mahsulotlarni nasiyaga sotish. 4) Texnik jihatdan sozlash uchun muxandis va texnik mutaxassislarning yetishmasligi. 5) Suv, gaz, elektr ta‘minotining uzluksiz emasligi.
	Potensial imkoniyatlar (O)	Tahdidlar (T)
Tashqi muhit	1) Korxonada mahsulot bozorining to‘yinmaganligi korxonaning o‘shish va kengayish imkoniyatlarini oshiradi. 2) Hududiy bozorni egallash imkoniyati. 3) Yangi mijozlarni yaqin qo‘shni davlatlar va qo‘shni viloyatlardan jalb qilish imkoniyati.	1) Tashqi bozordan import mahsulotlari hisobiga ichki qurilish mahsulotlari bozorini to‘yinishi natijasida imkoniyatlarni cheklanishi, sotish rejasidan chetlashish; 2) Tashqi bozordan xom ashyo va boshqa materiallar sotib olishda uzilishlar bo‘lishi yoki import mahsulotlarini yetib kelishida yoki to‘lovlarda muammolarning bo‘lishi.

Mazkur investitsiya loyihasining SWOT tahlilida ko‘rsatilgan korxonaning o‘shishi va kegayishi, hududiy bozorni egallash, yangi mijozlarni jalb qilish kabi potensial imkoniyatlar mavjud bo‘lsa-da, ammo tahdidlar ham yo‘q emas. Asosan, xavf-xatar import mahsulotlarining ichki bozorga ko‘plab kirib kelishi va xorijiy xom ashyo va boshqa materiallarni sotib olishda uzilishlar va to‘lovlarni kechikishi bilan bog‘liq. Ushbu riskni oldini olish maqsadida korxonadan oldindan quyidagi korxonalar bilan shartnomalar tuzib qo‘yilgan: “Sverdlovskiy metallurgicheskiy zavod”, “Yaroslavskiy lakokrasochniy zavod”, “Nadvoitskiy alyuminiyeviy zavod” – Rossiya; “Promtexasnab”, TOO “MetProomKontinent” – Qozog‘iston; “Jiangsu Teeyer Engineering Machinery Co, Ltd-Xitoy.

Fikrimiz yakunida, “Zarafshon golden group” MCHJ investitsiya loyihasining SWOT tahlili orqali korxonaning kuchli tomonlarining ko‘pligi va sanoqli risklar ta‘sir qilinishi aniqlandi. Korxonada risklarga qarshi zarur choralar qo‘llanilgan va umuman, loyiha samarali, uni amalga oshirish haqiqatda foyda keltirishi aniqlangan.

Mazkur investitsiya loyihasiga ta‘sir qiluvchi risklarni Delfi usulidan foydalanib baholaymiz. Delfi usuli ham ekspertlar fikri asosida risklarni baholashga asoslangan bo‘lib, uning ekspert baholash usulidan farqi ekspertlar soni bitta emas, balki bir nechta bo‘ladi va asosan, ekspertlar guruhidan foydalaniladi.

Investitsiya loyihasi risklarini Delfi usulida baholash uchun 5 nafar ekspert taklif qilindi. Ularning loyiha risklari bo‘yicha fikrlarini bilish va umumlashtirish maqsadida korxonadan 3 nafar tahlilchi tayinlandi.

Korxonada rahbariyati va tahlilchilar guruhi investitsiya loyihasiga ta‘sir etuvchi muhim risk turlarini ro‘yxatini tuzib, bu risk omillarining loyihaning samaradorligiga ta‘sirini baholash bo‘yicha ekspertlar fikridan foydalandilar. Har bir ekspert investitsiya loyihasi tavsifi, loyiha bilan bog‘liq turli xujjat va ma‘lumotlarga ega bo‘ldilar hamda loyihaga ta‘sir etuvchi risk turlarini o‘z ichiga olgan so‘rovnomanini oldilar.

4-jadval: “Zarafshon golden group” MCHJ investitsiya loyihasiga ta‘sir qiluvchi risklarni ekspertlar tomonidan baholanishi

Ekspertlar soni, a_i	Risk omillari, j_n											
	j_1	j_2	j_3	j_4	j_5	j_6	j_7	j_8	j_9	j_{10}	j_{11}	j_{12}
1	1,1	1,2	3	2	5	1	3	3	5	1	4	1
2	1,3	1,4	2	3	6	1	0	0	4	2	5	2
3	1,4	1,5	4	2	4	2	2	4	3	2	3	0
4	1,2	1,2	2	4	3	2	1	1	0	3	4	1
5	1,4	1,3	1,5	2	4	2	0	2	2	2	5	2
Yig‘indisi	6,4	6,6	12,5	13	22	8	6	10	14	10	21	6
O‘rtacha ko‘rsatkich	1,3	1,3	2,5	2,6	4,4	1,6	1,2	2	2,8	2	4,2	1,2



So'rovnoma qaydagi savollar o'z aksini topgan: korxonaga kerakli xom ashyo va boshqa resurslar bahosi kelgusi yilda necha foizga oshadi? (j_1 , inflyatsiya riski); korxonada mahsulot bahosi kelgusi yilda necha foizga tushadi? (j_2 , marketing riski); kelgusi yilda O'zbekistonda gazoblok va temir-beton qurilish mahsuloti bozorida korxonaning ulushi qanchaga oshadi? (j_3 , marketing riski); kelgusi yilda gazoblok va temir-beton qurilish mahsuloti narxining oshish indeksi qanday bo'ladi? (j_4 , inflyatsiya riski); kelgusi yilda gazoblok va temir-beton qurilish mahsuloti bozorida qancha yangi mahsulotlar kutilmoqda, deb o'ylaysiz? (j_5 , raqobatchilar bog'liq risklar); kelgusi yilda korxonada to'laydigan soliqlar necha foizga oshadi? (j_6 , moliyaviy risk); kelgusi yilda korxonada to'laydigan kredit uchun foizlar necha foizga oshadi? (j_7 , kredit riski); kelgusi yilda mahsulotlarni tashish va yetkazib berishda nechta shartnoma bajarilmay qolishi mumkin, deb o'ylaysiz? (j_8 , transport riski); kelgusi yilda korxonada faoliyati bilan bog'liq yangi qonun va boshqa me'yoriy xujjatlarning nechtasi salbiy ta'sir etishi mumkin? (j_9 , siyosiy risk); kelgusi yilda korxonada bilan shartnoma tuzgan nechta hamkorlar o'z majburiyatlarini bajarmay qo'yishi mumkin? (j_{10} , selektiv risk, shartnomaviy risk); kelgusi yilda korxonada nechta iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq jinoiy ishlar (o'g'rilik, qasddan mol-mulkka zarar yetkazish, poraxo'rlik va h.k.) sodir etilishi mumkin (j_{11} , kriminogen risklar); kelgusi yilda nechta tabiiy ofatlar korxonada faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin (j_{12} , fors-major risklar).

Yuqoridagi savollar korxonada rahbarlariga kerakli ma'lumotlar asosida tuzilgan bo'lib, har bir ekspert uchun mustaqil va anonim ishlashlari ta'minlandi. Ekspertlar tomonidan savollar asosida risk omillari baholandi va birinchi bosqichdan so'ng mutaxassislar tomonidan yuqoridagi 4-jadvaldagi natijalar qayd etildi.

Navbatdagi 5-jadvalda ekspert baholarining o'rtacha qiymatdan chetlanishi ko'rsatilgan.

5-jadval: Investitsiya loyihasiga ta'sir qiluvchi risklarni ekspertlar tomonidan berilgan baholarni umumlashtirish

Risk omillari, j_n	Ekspertlar soni, a_i				
	1	2	3	4	5
j_1	0,2	0	0,1	0,1	0,1
j_2	0,1	0,1	0,2	0,1	0
j_3	0,5	0,5	1,5	0,5	1
j_4	0,6	0,4	0,6	1,4	0,6
j_5	0,6	1,6	0,4	1,4	0,4
j_6	0,6	0,6	0,4	0,4	0,4
j_7	1,8	1,2	0,8	0,2	1,2
j_8	1	2	2	1	0
j_9	2,2	1,2	0,2	2,8	0,8
j_{10}	1	0	0	1	0
j_{11}	0,2	0,8	1,2	0,2	1,8
j_{12}	0,2	0,8	1,2	0,2	0,8
Chetlanish	9x4=36	9,2x4=36,8	8,6x4=34,4	9,3x4=37,2	7,1x4=28,4

Barcha o'rganilayotgan risk omillari bo'yicha barcha mutaxassislarining bergan baholarining chetlanishini yig'indisi quyidagicha bo'ladi:

$$\Delta a_i = ((36+36,8+34,4+ 37,2+28,4)/5) \times (1/12) = 2,88$$

Barcha omillar bo'yicha har bir ekspert fikrining ekspertlar guruhining o'rtacha bahosidan chetlanishi 6-jadvalda keltirilgan.

6-jadval: Barcha risk omillar bo'yicha har bir ekspertning bahosining ekspert guruhining o'rtacha fikridan og'ishi2

Risk omillari, j_n	Ekspertlar soni, a_i				
	1	2	3	4	5
Ekspertlar fikrining chetlanishi	2,88				
Har bir ekspert bo'yicha fikrlarning umumiy o'rtacha og'ishi	36	36,8	34,4	37,2	28,4
Xususiy og'ish moduli	33,12	33,92	31,52	34,32	25,52

2 Muallif tomonidan iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish asosida tuzildi va hisoblandi.



Olingan natija asosida ekspert-mutaxassislar to'plagan ballarini o'sish tartibida tuzamiz: 1-o'ringa – 25,52 ball bilan 5-ekspert; 2- o'ringa – 31,52 ball bilan 3-ekspert; 3- o'ringa – 33,12 ball bilan 1-ekspert; 4-o'ringa – 33,92 ball bilan 2-ekspert; 5- o'ringa – 34,32 ball bilan 4-ekspert joylashtirildi.

5-ekspertni ushbu ro'yxatdan chiqarib tashlash kerak, chunki to'plangan ballarga ko'ra, uning fikri boshqa ekspertlarning fikrlaridan juda uzoqdir va qolgan to'rtta ekspertning fikrlari asosida xulosa chiqarish lozim bo'ladi.

Shunday qilib, Delfi usulini qo'llash investitsiya loyihasiga ta'sir etuvchi risk omillarini sifat jihatidan bashorat qilish va bunday yetarlicha ishonchlilik darajasiga ega bo'lgan jamoaviy fikrlar va bashoratlar asosida kelgusi yil uchun korxonani rivojlantirish strategiyasini malakali tuzish va unga ta'sir etuvchi risklarni baholash imkonini berdi. Mazkur usulda ekspertlarning soni qancha ko'p bo'lsa, shunchalik aniqroq va sifatli natijaga erishiladi, ammo ekspertlarni jalb qilish va ularning maslahatidan foydalanish ma'lum xarajatlarni talab qilganligi va tashkiliy jarayonlar o'ziga xosligi sababli ko'pgina kompaniyalar ushbu usuldan foydalanishdan bosh tortadilar. Fikrimizcha, investitsiya loyihalarida miqdoriy usullarni qo'llab bo'lmaganda yoki qo'llash qiyin bo'lgan hollarda yohud innovatsion loyiha risklarini baholashda Delfi usulidan foydalanish afzal hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Korxonalarda investitsiya faoliyatini rejalashtirish va amalga oshirishda hamda oqilona va asosli boshqaruv qarorlarini qabul qilishda dastlabki tahlil va risklarni baholash alohida ahamiyatga ega.

Investitsiya risklarini sifatli tahlil etish va baholashda quyidagi masalalarga katta e'tibor berish lozim: loyiha ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlarning tezkor yig'ilishi va haqqoniyligi; investitsiya loyihasi risklarini tahlilini amalga oshiruvchi ekspert-analitiklarning malaka darajasi va tajribasining yetarli bo'lishi; risklar tahlilini amalga oshirishda qo'llaniladigan usullarning loyiha xususiyatlariga va risk turlariga mosligi; investitsiya loyihalari risklarini baholashda kompleks baholash ishlarini amalga oshirish lozim, ya'ni risklarni baholashda faqat bitta baholash usuli bilan kifoyalanmasdan, balki obyektiv (statistik va hisobot ma'lumotlariga asoslangan) usullar hamda subyektiv (ekspert fikriga asoslangan) usullar, shuningdek, sifat va miqdor jihatdan baholash usullarining integratsiyasiga asoslangan kompleks baholanishi lozim. Bunda bitta usulning kamchiligi ikkinchi usulning afzalligi bilan qoplanadi va risklarni mukammal baholanishiga erishiladi; risklarni baholash usullari xorij tajribalariga va ayniqsa, axborot kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan bo'lishi lozim.

Xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan taklif etilgan moliyaviy vositalar asosida risklarni boshqarish usullarining qo'llanilishi innovatsion moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalanilishiga, ilg'or va zamonaviy boshqarish usullarining keng qo'llanilishiga olib keladi.

Loyiha risklarini tahlil qilish asosida olingan natijalarga asosida risklarni boshqarishni to'g'ri tashkil etilganligi va risklarni pasaytirish usullarining to'g'ri tanlanganligi aniqlanadi.

Investitsiya loyihalariga ta'sir etuvchi risk turlarini sifat jihatdan baholashda ekspert baholash usuli, subyektiv ehtimollik usuli, SWOT-tahlili, 4P Marketing mix modeli va Delfi usuli kabi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Adabiyotlar /Литература /References:

1. Kembrij universiteti hisoboti. Cambridge Global Risk Index 2020. <https://www.jbs.cam.ac.uk/wp-content/uploads/2021/11/crs-cambridge-global-risk-index-2020.pdf>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmonining 49-maqsadi (<https://lex.uz/docs/6600413>).
3. Инвестиции: Учеб. пособие для студентов вузов, обучающихся по направлению подготовки "Экономика"/ Б.Т.Кузнецов. – М.: "ЮНИТИ-ДАНА", 2017. – С. 623.
4. Mirzayev F.I. Moliyaviy risklarning turlari, tasnifi, boshqarish va baholash usullari. – Toshkent: Moliya, 2006. – B. 12.
5. M.B.Junkes, A.P.Tereso, P.S.L.P.Afonso. The Importance of Risk Assessment in the Context of Investment Project Management: A Case Study// Conference on ENTERprise Information Systems / International Conference on Project MANagement / Conference on Health and Social Care Information Systems and Technologies, CENTERIS / ProjMAN / HCist 2015 October 7-9, 2015. (902-910 pages).
6. Michel Crouhy, Dan Galai, Robert Mark. The essentials of risk management. Copyright © 2006 by The McGraw-Hill Companies, Inc. – 416 p. (2-5 pages.)
7. Финансовый менеджмент: теория и практика / Е.С.Стоянова. – М.: "Перспектива", 2010. – С. 462.
8. Muallif tomonidan "Zarafshon golden group" MCHJ loyihasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

